

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

SIMULYATSION TEXNOLOGIYALAR VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Niyozova Dilfuza Rustam qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi tadqiqotchi.

e-mail: ukuldashev1994@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0008-2299-3329>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ta'limda simulyatsion texnologiyalarning o'rni va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Unda simulyatsion texnologiyalarning nazariy va amaliy imkoniyatlari, bo'lajak maxsus pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ta'siri hamda korreksion-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonidagi pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, simulyatsion yondashuvlar orqali talabalarda pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, mustaqil qaror qabul qilish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va refleksiv faoliyatni shakllantirish imkoniyatlari asoslangan.

Kalit so'zlar: Simulyatsion texnologiyalar, zamobaviylik,praksiologik tayyorgarlik, bo'lajak korreksion-pedagogik faoliyat, maxsus pedagogika, kasbiy kompetensiya, amaliy tayyorgarlik, oliy ta'lim jarayoni, auditoriya mashg'ulotlariinnovatsion pedagogik texnologiyalar.

СИМУЛЯЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Нийёзова Дилфуза Рустам кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, независимый исследователь.

Аннотация.

В данной статье рассматривается роль технологий моделирования в образовании и их значение в образовательном процессе. Анализируются теоретические и практические возможности технологий моделирования, их влияние на развитие профессиональных компетенций будущих специалистов специального образования, а также их педагогическое значение в процессе подготовки к коррекционно-педагогической деятельности. Также рассматриваются возможности моделирования педагогических ситуаций, самостоятельного принятия решений, развития практических навыков и формирования рефлексивной деятельности у учащихся посредством применения методов моделирования.

Ключевые слова: технологии моделирования, современность, праксеологическая подготовка, будущая коррекционно-педагогическая деятельность, специальная педагогика, профессиональная компетентность, практическая подготовка, процесс высшего образования, обучение в классе, инновационные педагогические технологии.

SIMULATION TECHNOLOGIES AND THEIR IMPORTANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Niyozova Dilfuza Rustam qizi

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Independent Researcher.

Abstract.

This article discusses the role of simulation technologies in education and their importance in the educational process. It analyzes the theoretical and practical capabilities of simulation technologies, their impact on the development of professional competencies of future special educators, and their pedagogical significance in the process of preparing for correctional and pedagogical activities. It also focuses on the possibilities of modeling pedagogical situations, independent decision-making, development of practical skills, and the formation of reflective activity in students through simulation approaches.

Keywords: Simulation technologies, modernity, praxeological preparation, future

correctional and pedagogical activities, special pedagogy, professional competence, practical training, higher education process, classroom training, innovative pedagogical technologies.

Kirish. Zamonaviy pedagogika fanining ustuvor vazifalaridan biri ta'lim jarayonini nazariy bilimlarni uzatishdan amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirishdan iborat. Bugungi globallashuv, raqamlashtirish va mehnat bozorining o'zgaruvchan talablari pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Endilikda pedagog nafaqat chuqur nazariy bilimga ega bo'lishi, balki turli pedagogik vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish, muammolarni tahlil qilish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil eta olishi zarur. Shu nuqtai nazardan simulyatsion texnologiyalar pedagogik ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion didaktik vosita sifatida alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Simulyatsion texnologiya – bu real hayotdagi kasbiy yoki pedagogik vaziyatlarni sun'iy (modellashirilgan), xavfsiz o'quv muhitida yaratish va shu orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim texnologiyasidir.

Adabiyotlar tahlili

Simulyatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalasi so'nggi yillarda pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur texnologiyalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularni real pedagogik vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishga tayyorlashning innovatsion vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, maxsus pedagogika yo'nalishida simulyatsion yondashuvlar bo'lajak mutaxassislarning praktsiologik tayyorgarligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston pedagogika ilmida inklyuziv va maxsus ta'lim masalalarini ilmiy asosda yoritgan olimlardan biri F. U. Qodirovadir. Muallif inklyuziv ta'limni tashkil etish jarayonida pedagogning nafaqat nazariy tayyorgarligi, balki amaliy kompetensiyalari ham yuqori darajada rivojlangan bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarni oldindan modellashirish va tahlil qilish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim sharti ekanligi qayd etiladi [1, 42–48].

Pedagogik texnologiyalar nazariyasini rivojlantirishda N. N. Azizxodjayevaning ilmiy ishlari alohida o'rin tutadi. Olim pedagogik texnologiyani ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalarini yagona tizim sifatida tashkil etuvchi ilmiy asoslangan faoliyat modeli deb baholaydi. Uning fikricha, zamonaviy pedagog ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal etish va reflektiv faoliyatini rivojlantirishi lozim [2, 67–73].

R. J. Ishmuhamedov innovatsion texnologiyalarni ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida talqin qiladi. Muallif ta'limning interaktiv metodlari, muammoli vaziyatlar, keys-stadilar va modellashirilgan topshiriqlar talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishini ilmiy asoslaydi. Ayniqsa, amaliy faoliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar orqali nazariy bilimlarning mustahkamlanishi va kasbiy ko'nikmalarning shakllanishi ta'kidlanadi [3, 54–61].

Pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda tadqiq etgan B. L. Farberman o'quv jarayonini loyihalash va boshqarishda zamonaviy texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini keng yoritadi. Olimning fikricha, pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Simulyatsion yondashuv ham ana shu innovatsion texnologiyalarning tarkibiy qismi sifatida real kasbiy vaziyatlarni modellashirish imkonini beradi [4, 85–92].

So'nggi yillarda maxsus pedagogika yo'nalishida innovatsion metodlarni qo'llash masalalari ham alohida ilmiy tadqiq etilmoqda. N. Djavlanova maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitishda ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslarini yoritadi. Muallifning ta'kidlashicha, simulyatsion mashg'ulotlar, elektron ta'lim vositalari va modellashirilgan pedagogik vaziyatlar talabalarning kasbiy refleksiyasi, analitik fikrlashi hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi [5, 58–61].

M. Sarimsoqova logopediya va maxsus pedagogika fanlarini o'qitishda innovatsion ta'lim metodlarining samaradorligini tahlil qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Olimning fikricha, interaktiv metodlar, rolli o'yinlar, keys texnologiyalari va simulyatsion mashg'ulotlar talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lashga, kasbiy moslashuvini tezlashtirishga hamda pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi [6, 140–145].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, pedagogika va maxsus pedagogika sohasida simulyatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha muayyan ilmiy-metodik asoslar yaratilgan. Biroq bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligini aynan simulyatsion texnologiyalar asosida shakllantirish, korreksion-pedagogik vaziyatlarni modellashirish hamda ularning samaradorligini baholashga oid ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan metodik model ishlab chiqish va uni oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga joriy etish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot simulyatsion texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tadqiqot metodologik asosini pedagogika va maxsus pedagogika fanlarining kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan hamda praktsiologik yondashuvlari tashkil etdi. Tadqiqot davomida simulyatsion texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga joriy etish bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, pedagogik tadqiqotlar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar qiyosiy va tizimli tahlil qilindi. Shuningdek, ilmiy manbalarni kontent tahlil

qilish, umumlashtirish, taqqoslash, mantiqiy tahlil va sintez metodlari orqali simulyatsion texnologiyalarning nazariy asoslari hamda ularning bo'lajak maxsus pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni aniqlandi.

Tahlil jarayonida simulyatsion texnologiyalarning asosiy shakllari – pedagogik keyslar, rolli o'yinlar, mikroo'qitish (*microteaching*), virtual simulyatsiyalar va refleksiv tahlil usullarining didaktik imkoniyatlari o'rganildi. Olingan ilmiy natijalar umumlashtirilib, simulyatsion yondashuvlarning nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, mustaqil qaror qabul qilish, kasbiy refleksiya hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Natija

Ilmiy nuqtai nazardan, simulyatsion texnologiyalar ta'lim oluvchiga tayyor bilimni berishdan ko'ra, uni real faoliyatga yaqin sharoitda harakat qilish, qaror qabul qilish, xatolarni tahlil qilish va tajriba orttirish jarayoniga jalb etadi. Pedagogikada simulyatsion texnologiyalar quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: Pedagogik vaziyatlarni modellashtirish – masalan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi murakkab vaziyatni yaratish; Rolli o'yinlar – talaba pedagog, ota-ona, psixolog yoki o'quvchi rovida ishtirok etishi; Keys-stadi (muammoli vaziyatlar) – real hayotga yaqin muammolarni tahlil qilish; Virtual simulyatsiyalar – raqamli vositalar orqali kasbiy vaziyatlarni mashq qilish; Refleksiya – bajarilgan faoliyatni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Maxsus pedagogika oldida turgan eng muhim vazifalardan biri intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashga qodir, kasbiy kompetensiyalari yuqori darajada shakllangan hamda murakkab korreksion-pedagogik vaziyatlarda mustaqil va asosli qaror qabul qila oladigan mutaxassislarini tayyorlashdan iborat. Oligofrenopedagogning kasbiy faoliyati nafaqat chuqur nazariy bilimlarni, balki amaliy tajriba, pedagogik refleksiya, kommunikativ mahorat va korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni samarali qo'llash ko'nikmalarini ham talab qiladi. Shu sababli bo'lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlash jarayonida praksiologik yondashuvni kuchaytirish bugungi kunning dolzarb ilmiy va amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogika fanida simulyatsion texnologiyalar ta'lim oluvchining kasbiy kompetensiyalarini real pedagogik faoliyatga yaqin sharoitlarda shakllantirish imkonini beruvchi faol o'qitish texnologiyasi sifatida qaraladi. Uning asosiy mohiyati o'quv jarayonida haqiqiy kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, talabaning faol ishtirokini ta'minlash va nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalashdan iborat. Natijada ta'lim oluvchi bilimni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki uni amaliy vaziyatlarda qo'llovchi, tahlil qiluvchi va mustaqil qaror qabul qiluvchi faol subyektaga aylanadi.

Bo'lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlash jarayonida simulyatsion texnologiyalar alohida ahamiyatga ega, chunki ular talabalarga intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashga oid vaziyatlarni oldindan mashq qilish imkonini beradi. Masalan, bolaning xulq-atvoridagi qiyinchiliklarni aniqlash, individual yondashuvni tanlash, korreksion mashg'ulotlarni rejalashtirish kabi kasbiy vazifalarni xavfsiz muhitda bajarishga yordam beradi. Simulyatsion texnologiya – bu nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lovchi, bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi va praksiologik tayyorgarligini rivojlantiruvchi innovatsion pedagogik vositadir.

Simulyatsion texnologiyalar pedagogik ta'limning mazmuni va metodikasini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash, ularning yechimlarini ishlab chiqish, o'z qarorlarini asoslash va natijalarni baholash ko'nikmalarini egallaydilar. Bunday yondashuv talabalarning analitik tafakkurini, ijodiy fikrlashini, kasbiy refleksiyasini va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Simulyatsion texnologiyalarning pedagogik ahamiyati, shuningdek, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish imkoniyatida ham namoyon bo'ladi. An'anaviy ta'lim jarayonida talabalar ko'proq nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanadilar, amaliy tajriba esa asosan pedagogik amaliyot davrida shakllanadi. Simulyatsion texnologiyalar esa kasbiy faoliyat elementlarini auditoriya mashg'ulotlariga olib kiradi. Bu esa bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich tayyorlanishini ta'minlaydi va ularning real ish faoliyatiga moslashish jarayonini yengillashtiradi.

Bundan tashqari, simulyatsion texnologiyalar pedagogik ta'limda refleksiv yondashuvni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Har bir simulyatsion mashg'ulot yakunida talabalarning o'z faoliyatini tahlil qilishi, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashi, ularning sabablarini baholashi va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha xulosalar chiqarishi kasbiy o'sishning muhim omiliga aylanadi. Shu jihatdan simulyatsion texnologiyalar o'z-o'zini baholash, tanqidiy fikrlash va uzluksiz kasbiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Pedagogika fanida simulyatsion texnologiyalarning yana bir muhim afzalligi ta'limning xavfsiz o'quv muhitini yaratishidir. Talabalar real pedagogik faoliyatda jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan xatolarni simulyatsion mashg'ulotlarda xavfsiz sharoitda sinab ko'rish, ularni tahlil qilish va bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning kasbiy ishonchini oshiradi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi hamda pedagogik faoliyatga psixologik tayyorgarligini kuchaytiradi. Raqamli transformatsiya sharoitida simulyatsion texnologiyalar virtual laboratoriyalar, elektron keyslar, video ssenariylar, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari va virtual reallik texnologiyalari bilan uyg'unlashib, pedagogik ta'limning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Bu esa ta'lim jarayonining interaktivligini oshirish, individual ta'lim trayektoriyasini yaratish va bo'lajak pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Simulyatsion texnologiyalar pedagogika fanida faqat yangi o'qitish metodi emas, balki ta'lim mazmunini amaliyot bilan uyg'unlashtiruvchi, bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi, refleksiv fikrlashini shakllantiruvchi hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli ularni oliy pedagogik ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish zamonaviy pedagoglarni tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak oligofrenopedagoglarning maxsus pedagogika, maxsus

psixologiya, logopediya, inklyuziv ta'lim va korreksion metodikalar bo'yicha yetarli nazariy bilimlarni egallaydilar. Biroq mazkur bilimlarni real pedagogik vaziyatlarga mos ravishda qo'llash, murakkab korreksion vaziyatlarni tahlil qilish, individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, ota-onalar bilan samarali muloqot qilish va o'quvchining rivojlanish dinamikasiga mos qaror qabul qilishda qator qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu holat nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishning mavjudligini ko'rsatadi hamda praktsiologik tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlarni izlashni taqozo etadi. Mazkur muammoni hal etishda simulyatsion texnologiyalar muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ularning asosiy afzalligi shundaki, talaba real ta'lim muassasasiga chiqishidan oldin kasbiy faoliyatda uchrashi mumkin bo'lgan murakkab pedagogik vaziyatlarni modellashtirilgan, xavfsiz va boshqariladigan muhitda boshdan kechiradi. Simulyatsion mashg'ulotlar jarayonida talaba pedagogik vaziyatni tahlil qiladi, muammoning sabablarini aniqlaydi, bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqadi, eng maqbul qarorni tanlaydi va o'z faoliyatini refleksiv baholaydi. Aynan shu jarayon praktsiologik tayyorgarlikning shakllanish mexanizmini tashkil etadi.

Simulyatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu texnologiyalar bo'lajak maxsus pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ayniqsa, real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, mustaqil qaror qabul qilish, kasbiy refleksiya va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari samarali rivojlanadi. Tahlillar natijasida simulyatsion texnologiyalarni qo'llashning asosiy pedagogik natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

Simulyatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar va ularning pedagogik ahamiyati

Simulyatsion texnologiya elementi	Shakllanadigan kompetensiya	Kutilayotgan pedagogik natija
Pedagogik vaziyatlarni modellashtirish	Tahliliy fikrlash	Muammoni aniqlash va ilmiy asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi
Rolli o'yinlar	Kommunikativ kompetensiya	Ota-onalar, hamkasblar va o'quvchilar bilan samarali muloqot ko'nikmalari shakllanadi
Keys-stadi (Case study)	Muammoli vaziyatlarni hal etish	Nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash malakasi rivojlanadi
Mikroo'qitish (Microteaching)	Pedagogik mahorat	Darsni rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha amaliy tajriba ortadi
Virtual simulyatsiyalar	Raqamli kompetensiya	Zamonaviy axborot texnologiyalaridan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmasi shakllanadi
Refleksiv tahlil	Kasbiy refleksiya	O'z faoliyatini baholash va takomillashtirish malakasi rivojlanadi
Kompleks simulyatsion mashg'ulotlar	Praktsiologik tayyorgarlik	Kasbiy faoliyatga psixologik va metodik tayyorgarlik darajasi oshadi


Jadvalda keltirilgan natijalar simulyatsion texnologiyalar bo'lajak maxsus pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantirishini ko'rsatadi. Pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va keys-stadi usullari analitik hamda muammoli fikrlashni rivojlantirsa, rolli o'yinlar va mikroo'qitish kommunikativ hamda metodik kompetensiyalarni mustahkamlaydi. Virtual simulyatsiyalar raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, refleksiv tahlil esa talabaning o'z faoliyatini tanqidiy baholashi va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirishga imkon yaratadi. Natijada simulyatsion texnologiyalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash orqali bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligini sezilarli darajada oshiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama. Bo'lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlashda qo'llaniladigan simulyatsion texnologiyalar turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, pedagogik keyslar asosida vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o'yinlar, videostsenariylar, mikroo'qitish (microteaching), virtual sinf muhiti, elektron simulyatorlar hamda sun'iy intellekt elementlariga asoslangan interaktiv platformalar talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu vositalar orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'laydi, pedagogik tafakkurini rivojlantiradi va kasbiy refleksiya ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida maxsus pedagoglarni tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar simulyatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Biroq mavjud o'quv dasturlarida simulyatsion mashg'ulotlarning ulushi cheklangan, korreksion-pedagogik vaziyatlar, baholash mezonlari va metodik ta'minot yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligini simulyatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning ilmiy-metodik modelini yaratish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Dastlab talabalarning boshlang'ich praktsiologik tayyorgarlik darajasi diagnostika qilinadi. Keyingi bosqichda korreksion-pedagogik vaziyatlar modellashtiriladi va talabalarga amaliy topshiriqlar beriladi. Simulyatsion mashg'ulotlar yakunida refleksiv tahlil tashkil etilib, talabalarning qarorlari ilmiy mezonlar asosida baholanadi. Olingan natijalar asosida individual rivojlanish yo'nalishlari belgilanadi. Bunday tizimli yondashuv bo'lajak

oligofrenopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini izchil rivojlantirishga imkon beradi.

Olingan natijalar simulyatsion texnologiyalarni bo'lajak maxsus pedagoglarni tayyorlash jarayoniga tizimli ravishda joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Nazariy tahlillar asosida ishlab chiqilgan interaktiv model simulyatsion ta'limning ketma-ket va uzviy tashkil etilishini ta'minlaydi. Mazkur model talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishga xizmat qiladi. Modelning har bir bosqichi keyingisi bilan uzviy bog'langan bo'lib, natijada talabaning kasbiy kompetensiyasi bosqichma-bosqich shakllanadi.



Mazkur interaktiv model simulyatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi izchil ketma-ketligini aks ettiradi. Dastlab talabalarda zarur nazariy bilimlar shakllantiriladi, so'ngra ular modellastirilgan pedagogik muhitga jalb etiladi. Ushbu bosqichda pedagogik vaziyatlar, rolli o'yinlar va keys-stadi metodlari orqali talabalar real kasbiy faoliyatga yaqin sharoitlarda muammolarni tahlil qiladi va yechimlarni ishlab chiqadi. Keyingi bosqichda tanlangan yechimlar amaliy faoliyatda sinovdan o'tkazilib, mikroo'qitish va virtual simulyatsiyalar orqali mustahkamlanadi. Jarayon reflektiv tahlil bilan yakunlanadi, bunda talabalar o'z faoliyatini baholaydi, kamchiliklarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilaydi. Natijada kasbiy kompetensiyalari rivojlangan, pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan hamda praktsiologik tayyorgarligi shakllangan bo'lajak maxsus pedagog tayyorlanadi.

Xulosa. Simulyatsion texnologiyalar bo'lajak oligofrenopedagoglarning praktsiologik tayyorgarligini takomillashtirishda nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlovchi, kasbiy kompetensiyalarni kompleks rivojlantiruvchi, reflektiv faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi hamda korreksion-pedagogik faoliyat samaradorligini oshiruvchi innovatsion pedagogik vosita hisoblanadi. Ularni oliy ta'lim tizimiga ilmiy asosda joriy etish maxsus pedagoglarni tayyorlash sifatini oshirish, yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuvini tezlashtirish va alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan pedagogik xizmatlar sifatini yaxshilash uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Qodirova F. U. Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2009. – 224 b.
- Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2002. – 192 b.
- Ishmuhamedov R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: TDPU, 2004. – 192 b.
- Farberman B. L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2000. – 128 b.
- Djavlanova N. Ilm-fanni rivojlantirish va innovatsiyalardan foydalangan holda maxsus pedagogika modulini integrativ o'qitish vositalari // Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2025. – № 4 (8). – B. 58–61.
- Sarimsoqova M. Maxsus pedagogika (logopediya) fanlarini o'qitishda innovatsion ta'lim metodlaridan va ilmiy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish // Modern Education and Development. – 2025. – Vol. 18. – No. 7. – B. 140–146.